



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 08 | pp. 90-97 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MINTAQALARNI STRATEGIK RIVOJLANTIRISHDA AGLOMERATSIYA SAMARALARINI ANIQLASH VA IQTISODIY BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH



Ernazarova Nilufar Nozimjonovna
Namangan davlat texnika universiteti
"Menejment" kafedrasi katta o'qituvchisi
i.f.f.d., PhD.

Annotatsiya. Maqolada mintaqalarni strategik rivojlantirishda aglomeratsiya samaralarini aniqlash va iqtisodiy baholash yondashuvlari o'rganildi. Tizimli yondashuv, makoniy qiyoslash va koeffitsiyentlar usuli asosida O'zbekiston hududlari hamda ayrim yirik shaharlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Axborot bazasida rasmiy statistik ma'lumotlar va sun'iy yo'ldosh kuzatuvlariga asoslangan e'lon qilingan baholashlardan foydalanildi. Shahar mukofoti koeffitsiyentlari hisoblanib, aholi jon boshiga mahsulotning mamlakat o'rtacha darajasiga nisbatan farqlari ko'rsatildi. Umumiy resurslardan foydalanish, mehnat bozoridagi moslashuv va bilimlar tarqalishi aglomeratsiyaning asosiy mexanizmlari sifatida tizimlashtirildi. Namangan misolida hududiy aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlari muhokama qilindi. Transport integratsiyasi, innovatsion hududlar va shahar infratuzilmasini rivojlantirishga doir takliflar ishlab chiqildi. Natijalar hududiy strategiyalar uchun tahliliy asos sifatida talqin qilindi.

Kalit so'zlar: aglomeratsiya samaralari, mintaqaviy rivojlanish, shahar mukofoti, iqtisodiy zichlik, makoniy tahlil, urbanizatsiya, transport integratsiyasi, bilimlar tarqalishi.

Аннотация. В статье были рассмотрены подходы к выявлению и экономической оценке агломерационных эффектов в стратегическом развитии регионов. На основе системного подхода, пространственного сопоставления и метода коэффициентов были проанализированы экономические показатели регионов и отдельных крупных городов Узбекистана. Информационную базу составили официальные статистические данные и опубликованные оценки, полученные по спутниковым наблюдениям. Были рассчитаны коэффициенты городской премии и показаны различия выпуска на душу населения относительно среднего уровня страны. Совместное использование ресурсов, согласование спроса и предложения труда и распространение знаний были систематизированы как основные механизмы агломерации. На примере Намангана были рассмотрены возможности развития территориальных связей. Были предложены меры по транспортной интеграции, развитию инновационных территорий и городской инфраструктуры.

Ключевые слова: агломерационные эффекты, региональное развитие, городская премия, экономическая плотность, пространственный анализ, урбанизация, транспортная интеграция, распространение знаний.

Abstract. The article examined approaches to identifying and economically assessing agglomeration effects in regional strategic development. Systems analysis, spatial comparisons and

coefficient calculations were applied to economic indicators for Uzbekistan's regions and selected major cities. Official statistics and published estimates based on satellite observations provided the information base. Urban premium coefficients were calculated, highlighting differences in output per capita relative to the national average. Resource sharing, labour market matching and knowledge diffusion were classified as principal agglomeration mechanisms. Opportunities for strengthening territorial connections were discussed using Namangan as an example. Proposals addressed transport integration, innovation areas and coordinated urban infrastructure development.

Keywords: *agglomeration effects, regional development, urban premium, economic density, spatial analysis, urbanisation, transport integration, knowledge diffusion.*

KIRISH

Iqtisodiy faoliyatning makonda notekis joylashuvi zamonaviy dunyo iqtisodiyotining eng barqaror qonuniyatlaridan biridir. Aholi, korxonalar, kapital va bilimlar nisbatan kichik hududlarda, avvalo yirik shaharlar va ularning atrofida to'planib, mamlakat yalpi mahsulotining katta qismini yaratadi. Bu to'planish tasodifiy jarayon emas: korxonalar va xodimlar bir-biriga yaqin joylashganda qo'shimcha iqtisodiy afzalliklarga ega bo'ladi. Iqtisodiy nazariyada bunday afzalliklar aglomeratsiya samaralari deb ataladi va ular shaharlar hamda mintaqalar rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Aglomeratsiya jarayonlarini zamonaviy iqtisodiy nazariyaga izchil kiritgan tadqiqot P. Krugman tomonidan amalga oshirilgan. Uning yangi iqtisodiy geografiya modelida ko'lamdan ortib boruvchi qaytim, transport xarajatlari va talabning makoniy taqsimoti o'zaro ta'sirida dastlab bir xil bo'lgan hududlar sanoatlashgan markaz va agrar periferiyaga ajralishi mumkinligi ko'rsatildi [1]. Model aglomeratsiyaning o'z-o'zini kuchaytiruvchi xususiyatini asosladi: bozor hajmi katta hududga korxonalar jalb etiladi, korxonalar soni ortishi esa bozorni yanada kengaytiradi.

M. Fujita va J.-F. Tiss aglomeratsiya iqtisodiyotiga oid nazariy yondashuvlarni umumlashtirib, to'planishni rag'batlantiruvchi markazga intiluvchi kuchlar va uni cheklovchi markazdan qochuvchi kuchlar o'rtasidagi muvozanat shahar tizimining tuzilmasini belgilashini ko'rsatdi [2]. Markazga intiluvchi kuchlar qatoriga bozorga yaqinlik, ixtisoslashgan mehnat bozori va bilimlar almashinuvi, markazdan qochuvchi kuchlar qatoriga esa yer va uy-joy narxlari, transport tirbandligi hamda ekologik yuklama kiradi. Ushbu muvozanat g'oyasi mintaqaviy strategiyalarda aglomeratsiya samaralaridan maksimal foydalanish va ularning xarajatlarini boshqarish vazifalarini birgalikda hal etish zaruratini asoslaydi.

Mintaqalarni strategik rivojlantirishda aglomeratsiya samaralari ikki jihatdan muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, yirik shahar aglomeratsiyalari mamlakat iqtisodiy o'sishining lokomotivi bo'lib, innovatsiyalar, yuqori malakali xizmatlar va xalqaro aloqalar markazi vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, viloyat markazlari va o'rta shaharlarda aglomeratsiya salohiyatini rivojlantirish hududlararo muvozanatli o'sishning samarali vositasi hisoblanadi. Maqolaning maqsadi aglomeratsiya samaralarini aniqlash va iqtisodiy baholash metodikasini takomillashtirish hamda uni O'zbekistonning hududiy va shahar darajasidagi ma'lumotlari asosida asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Aglomeratsiya samaralarining manbalarini tizimlashtirishda G. Duranton va D. Puga taklif etgan mikroasoslar tasnifi keng tan olingan. Mualliflar aglomeratsiya afzalliklarini uch mexanizmga ajratdi: umumiy resurslar, infratuzilma va yetkazib beruvchilardan birgalikda foydalanish; xodimlar va ish beruvchilarning bir-biriga samaraliroq moslashuvi; hamda bilimlar va g'oyalarning tarqalishi orqali o'rganish [3]. Ushbu tasnif aglomeratsiya samaralarini baholashda ularning qaysi mexanizm orqali yuzaga kelayotganini aniqlash va shunga mos siyosat vositalarini tanlash imkonini beradi.

S. Rozental va U. Streynjd aglomeratsiya samaralariga oid empirik dalillarni umumlashtirib, ularning tarmoq, makon va vaqt bo'yicha ko'lamini aniqladi [4]. Tadqiqot aglomeratsiya samaralari masofa ortishi bilan tez susayishini, ya'ni asosan bir necha kilometr doirasida kuchli namoyon bo'lishini, ular tarmoqlar bo'yicha farqlanishini hamda iqtisodiy zichlikning ikki barobar ortishi unumdorlikni muayyan foizga oshirishini ko'rsatdi. Makoniy ko'lam haqidagi xulosa aglomeratsiya samaralarini viloyat darajasida emas, shahar va shahar atrofi hududlari darajasida baholash zarurligini asoslaydi.

E. Glezer va hammualliflar AQSh shaharlari misolida bir tarmoq ichidagi to'planish, ya'ni lokalizatsiya samaralari va turli tarmoqlarning bir hududda birgalikda joylashuvi, ya'ni urbanizatsiya samaralarini qiyosiy o'rganib, tarmoqlar xilma-xilligi yuqori bo'lgan shaharlarda bandlik tezroq o'sishini aniqladi [5]. E. Glezer va D. Mare shaharlarda ish haqining yuqoriligi qisman xodimlarning shahar muhitida malakasini tezroq oshirishi bilan izohlanishini ko'rsatib, shahar mukofoti tushunchasiga o'rganish mexanizmi orqali mazmun berdi [6].

Aglomeratsiya samaralarini ishonchli miqdoriy baholashning zamonaviy uslubiy standartini P. Komb, G. Duranton, L. Gobiyon, D. Puga va S. Ru o'rnatdi. Mualliflar Fransiya ma'lumotlari asosida yirik shaharlardagi unumdorlik ustunligini aglomeratsiya samaralari va eng samarali korxonalarining saralanishi komponentlariga ajratib, unumdorlik farqining asosiy qismi haqiqiy aglomeratsiya samarasi ekanini aniqladi [7]. Bu natija shaharlar unumdorlik mukofotini baholashda hudud tarkibidagi korxonalar va xodimlar xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatdi.

Urbanizatsiya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatni J.V. Xenderson mamlakatlararo ma'lumotlarda tahlil qilib, o'sishga urbanizatsiya darajasining o'zidan ko'ra aholining shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, ya'ni shahar tizimidagi konsentratsiya darajasining mutanosibligi ko'proq ta'sir etishini aniqladi [8]. Xenderson xulosasi mintaqaviy strategiyalarda yirik aglomeratsiyani rivojlantirish bilan birga o'rta va kichik shaharlar tarmog'ini mustahkamlash lozimligini asoslaydi. Adabiyotlar sharhi aglomeratsiya samaralarini manba mexanizmi, makoniy ko'lam va iqtisodiy natija bo'yicha kompleks baholash metodikasiga ilmiy ehtiyoj borligini ko'rsatdi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli yondashuv, makoniy-qiyosiy tahlil, koeffitsiyentlar usuli va aglomeratsiya samaralarini tasniflash yondashuvidan foydalanildi. Axborot bazasi Milliy statistika qo'mitasining aholi soni [9], shahar va qishloq aholisi taqsimoti [10], hududlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi bo'yicha dastlabki baholashlari [11], Toshkent shahri yalpi hududiy mahsuloti [12], hududlarning 2025-yildagi iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari [13] hamda sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari asosida shaharlar bo'yicha aholi jon boshiga mahsulot hajmini baholash natijalari [14] asosida shakllantirildi. Qiyoslashda

ma'lumotlarning davri, hududiy chegaralari va hisoblash usullarining mosligi hisobga olinishi zarur.

Baholash tizimi aholi jon boshiga mahsulotning nisbiy darajasi va mehnat unumdorligining iqtisodiy zichlik bilan bog'liqligini aniqlashga asoslandi. Birinchi ko'rsatkich - shahar iqtisodiy ustunligi koeffitsiyenti shahar yoki aglomeratsiyada aholi jon boshiga yaratilgan mahsulotning mamlakatdagi o'rtacha darajaga nisbatini ifodalaydi:

$$ShMK = \frac{Y_j/P_j}{Y/P}. \quad (1)$$

Bu yerda: Y_j - j -shahar yoki aglomeratsiyada yaratilgan yalpi mahsulot; P_j - ushbu hudud aholisi; Y - mamlakat yalpi ichki mahsuloti; P - mamlakat aholisi.

Koeffitsiyentning birdan yuqori qiymati hududda aholi jon boshiga mahsulot mamlakat o'rtachasidan yuqori ekanini bildiradi. Ushbu farq aglomeratsiya samaralari bilan birga tarmoq tarkibi, kapital bilan ta'minlanganlik va mehnat resurslari xususiyatlarini ham aks ettirishi mumkin.

Ikkinchi ko'rsatkich - mehnat unumdorligining iqtisodiy zichlikka nisbatan elastikligi quyidagi regressiya tenglamasi orqali baholanadi:

$$\ln\left(\frac{Y_j}{L_j}\right) = \alpha + \beta \ln D_j + \gamma^T X_j + \varepsilon_j. \quad (2)$$

Bu yerda: L_j - hududda band bo'lganlar soni; Y_j/L_j - mehnat unumdorligi; D_j - bir kvadrat kilometr ga to'g'ri keladigan bandlar soni; X_j - ishchi kuchi malakasi va tarmoq tarkibini ifodalovchi nazorat o'zgaruvchilari; α - ozod had; β va γ - baholanadigan koeffitsiyentlar; ε_j - tasodifiy xatolik.

β -koeffitsienti boshqa kiritilgan omillar o'zgarmaganda bandlik zichligining bir foizga oshishi mehnat unumdorligining necha foiz o'zgarishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Nazorat o'zgaruvchilari malakali xodimlar va unumdor korxonalarning yirik markazlarda to'planishi bilan bog'liq saralash samarasini qisman hisobga olishga yordam beradi [7]. Biroq ularning kiritilishi zichlikning unumdorlikka sababiy ta'sirini to'liq ajratish uchun yetarli emas.

Iqtisodiy faollikning hududiy konsentratsiyasi hududning mamlakat mahsulotidagi ulushini uning aholidagi ulushiga taqqoslash orqali ham ifodalanadi:

$$AKK = \frac{Y_j/Y}{P_j/P} = \frac{Y_j/P_j}{Y/P} = ShMK. \quad (3)$$

Demak, bir xil ma'lumotlar qo'llanganda aglomeratsiya konsentratsiyasi va shahar iqtisodiy ustunligi koeffitsiyentlari matematik jihatdan aynan bir ko'rsatkichdir. Shu sababli ular baholashda mustaqil mezonlar sifatida takroran hisobga olinmaydi.

Natijalar Durantoni va Puga tasnifidagi resurs va infratuzilmadan birgalikda foydalanish, ish beruvchilar va xodimlar o'rtasida moslikni ta'minlash hamda bilim almashish mexanizmlari asosida talqin qilinadi [3]. Ushbu mexanizmlar bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilashda hisoblangan ko'rsatkichlar hududning tarmoq tarkibi, infratuzilmasi va mehnat bozori xususiyatlari bilan birgalikda tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda urbanizatsiya jarayoni izchil davom etib, shaharlar iqtisodiy o'sishning asosiy markaziga aylanmoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra,

2026-yil 1-yanvar holatiga mamlakatning doimiy aholisi 38 236 704 kishini tashkil etib, bir yilda 693,5 ming kishiga ko'paydi, Namangan viloyati aholisi 3 190,8 ming kishiga yetdi [9]. 2026-yil 1-aprel holatiga aholining 19,6 mln kishisi shahar joylarda, 18,8 mln kishisi qishloq joylarda istiqomat qilgani ma'lum qilindi [10]. Muallif hisob-kitobiga ko'ra, shahar aholisining ulushi taxminan 51 foizni tashkil etadi va mamlakat aholisining yarmidan ortig'i shahar muhitida yashamoqda.

Hududiy kesimdagi ma'lumotlar yirik aglomeratsiyaning milliy iqtisodiyotdagi yetakchi rolini yaqqol ko'rsatdi. 2025-yilning yanvar-mart oylari bo'yicha dastlabki baholashlarga ko'ra, yalpi ichki mahsulot tarkibida eng katta ulush Toshkent shahriga to'g'ri kelib, 21 foizni tashkil etdi [11]. 2026-yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrining yalpi hududiy mahsuloti 226 trln so'mni tashkil etib, 13,3 foizga o'sdi, respublika yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 21,1 foizga yetdi, poytaxt iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushi esa 67,9 foiz bilan respublikadagi eng yuqori daraja qayd etildi [12]. Xizmatlar ulushining yuqoriligi Duranton va Puga tasnifidagi o'rganish va moslashuv mexanizmlari poytaxt aglomeratsiyasida to'liq ishga tushganini ko'rsatadi.

Aglomeratsiya samaralari o'sish sur'atlarida ham namoyon bo'ldi. 2025-yilda hududlar kesimida eng yuqori iqtisodiy o'sish Toshkent shahrida 11,3 foiz darajasida qayd etilib, Sirdaryo viloyati 9,8 foiz, Namangan va Jizzax viloyatlari 8,2 foizdan o'sish ko'rsatdi [13]. Poytaxt aglomeratsiyasiga yaqin joylashgan Sirdaryo viloyatining yuqori sur'ati aglomeratsiya samaralarining qo'shni hududlarga tarqalayotganini, Namangan viloyatining respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori o'sishi esa Farg'ona vodiysidagi zich shaharlar tarmog'ida hududiy aglomeratsiya salohiyati kuchayayotganini ko'rsatadi.

1-jadval

O'zbekistonning yirik shaharlarida aholi jon boshiga mahsulot va shahar mukofoti koeffitsiyenti (2025-yil)¹


Shahar	Aholi jon boshiga YaHM, ming AQSh dollari	Shahar mukofoti koeffitsiyenti (ShMK)*
Toshkent shahri	9,3	2,39
Navoiy shahri	9,3	2,39
Zarafshon shahri	7,9	2,03
Samarqand shahri	7,2	1,85
Qo'qon shahri	6,7	1,72
Andijon shahri	6,7	1,72
O'zbekiston bo'yicha o'rtacha	3,887	1,00

1-jadval ma'lumotlari yirik shaharlarda aglomeratsiya samaralari yuqori shahar mukofoti shaklida namoyon bo'layotganini tasdiqladi. Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari asosidagi baholashga ko'ra, 2020-2025-yillarda mamlakat aholisi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 80,3 foizga o'sib, 2 090 dollardan 3 887 dollarga yetgan, yirik shaharlar orasida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida 9,3 ming dollar darajasida qayd etilgan [14].

¹ Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari asosidagi baholash natijalari [14] asosida tuzilgan; * mamlakat o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan muallif tomonidan hisoblangan.

Muallif hisob-kitobiga ko'ra, Toshkent va Navoiy shaharlarida shahar mukofoti koeffitsiyenti 2,39 ni, Zarafshonda 2,03 ni, Samarqandda 1,85 ni, Qo'qon va Andijonda 1,72 ni tashkil etadi. Koeffitsiyentlarning barcha yirik shaharlarda birdan sezilarli yuqoriligi aglomeratsiya afzalliklari faqat poytaxt bilan cheklanmasdan, sanoat va savdo markazlarida ham kuchli ekanini ko'rsatadi.

Shahar mukofoti tarkibi aglomeratsiya samaralarining turli manbalarini aks ettiradi. Toshkent shahrida yuqori mukofot urbanizatsiya samaralari, ya'ni moliya, axborot-kommunikatsiya, ta'lim va biznes xizmatlarining xilma-xilligi bilan izohlansa, Navoiy va Zarafshon shaharlarida u kon-metallurgiya va kimyo sanoatidagi lokalizatsiya samaralariga tayanadi. Samarqand turizm va xizmatlar klasteri, Qo'qon va Andijon esa sanoat, savdo va avtomobilsozlik bilan bog'liq ixtisoslashuv orqali yuqori mukofotga erishmoqda. Glezer va hammualliflar asoslaganidek [5], tarmoqlar xilma-xilligi va ixtisoslashuv muvozanati shaharlarning uzoq muddatli o'sish salohiyatini belgilaydi.



1-rasm. Aglomeratsiya samaralarining manba mexanizmlari va ularni iqtisodiy baholash ko'rsatkichlari²

1-rasmda aglomeratsiya samaralarini aniqlashdan iqtisodiy baholashgacha bo'lgan mantiqiy zanjir aks ettirilgan. Chap tomondagi uch mexanizm aglomeratsiya samaralarining manbalarini, markaziy blok ularning lokalizatsiya va urbanizatsiya shaklidagi namoyon bo'lishini, o'ng tomondagi uch ko'rsatkich esa bu samaralarning iqtisodiy natijasini o'lchaydi. Model hududiy boshqaruv organlariga shahar yoki aglomeratsiyada qaysi mexanizm kuchli ekanini aniqlab, strategik chora-tadbirlarni mos ravishda tanlash imkonini beradi.

Metodikani viloyat markazlari darajasida qo'llash hududiy muvozanatli rivojlanish strategiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Xenderson xulosasiga ko'ra, o'sish uchun shahar tizimidagi konsentratsiyaning mutanosibligi hal qiluvchi omil hisoblanadi [8], shuning uchun poytaxt aglomeratsiyasining yuqori samaradorligi viloyat markazlarida aglomeratsiya salohiyatini rivojlantirish bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Namangan

² Muallif ishlanmasi (G. Duranton va D. Puga tasnifi asosida).

viloyati misolida Namangan shahri va unga tutash tumanlar bilan transport jihatdan bog‘langan hududiy aglomeratsiyani shakllantirish tikuv-trikotaj, oziq-ovqat va qurilish materiallari korxonalari uchun umumiy logistika, ixtisoslashgan mehnat bozori va kasbiy ta‘lim markazlaridan birgalikda foydalanish imkonini beradi. Aholi zichligi yuqori Farg‘ona vodiysida bunday aglomeratsiyalar tarmog‘i Rozental va Streindj aniqlagan qisqa masofadagi kuchli samarlardan [4] to‘liq foydalanish uchun qulay makoniy asos yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot aglomeratsiya samalarini manba mexanizmlari, makoniy ko‘lami va iqtisodiy natijasi bo‘yicha kompleks aniqlash va baholash ilmiy jihatdan asosli ekanini ko‘rsatdi. Taklif etilgan shahar mukofoti ko‘effitsiyenti, iqtisodiy zichlik elastikligi va aglomeratsiya konsentratsiyasi ko‘effitsiyenti rasmiy statistika hamda sun‘iy yo‘ldosh ma‘lumotlari bilan ta‘minlangan, shaharlar va hududlararo taqqoslash uchun qulay baholash tizimini tashkil etadi.

Tahlil O‘zbekistonda aglomeratsiya samalarini iqtisodiy o‘rta kuchli manbaiga aylanganini tasdiqladi. Toshkent shahri respublika yalpi ichki mahsulotining 21 foizdan ortig‘ini yaratib, yuqori sur‘atda o‘smoqda, yirik sanoat va savdo shaharlarida aholi jon boshiga mahsulot mamlakat o‘rtacha darajasidan 1,7-2,4 barobar yuqori, aglomeratsiya samalarini Sirdaryo va Namangan kabi hududlarning yuqori o‘rta kuchida ham namoyon bo‘lmoqda. Shahar aholisi ulushining yarmidan oshishi aglomeratsiya salohiyatining keyingi kengayishi uchun mustahkam demografik asos yaratadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, viloyat markazlari va yirik shaharlar kesimida shahar mukofoti va aglomeratsiya konsentratsiyasi ko‘effitsiyentlarini muntazam hisoblab, ularni hududiy rivojlanish strategiyalarida o‘rta kuchli markazlarini belgilash mezon sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, har bir viloyatda markaziy shahar va unga tutash tumanlarni tezkor transport bilan bog‘lovchi hududiy aglomeratsiyalarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish aglomeratsiya samalarining makoniy ko‘lamini kengaytiradi. Uchinchidan, viloyat markazlarida ta‘lim, tadqiqot va biznes xizmatlarini jamlovchi innovatsion hududlarni tashkil etish o‘rganish mexanizmini kuchaytirib, bilim sig‘imi yuqori tarmoqlarni jalb qiladi. To‘rtinchidan, shaharsozlik rejalashtirishida uy-joy, jamoat transporti va yashil hududlarni oldindan ko‘zda tutish markazdan qochuvchi kuchlar ta‘sirini yumshatib, aglomeratsiyaning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Krugman P. Increasing Returns and Economic Geography // Journal of Political Economy. - 1991. - Vol. 99, No. 3. - P. 483-499. - URL: <https://doi.org/10.1086/261763>
2. Fujita M., Thisse J.-F. Economics of Agglomeration // Journal of the Japanese and International Economies. - 1996. - Vol. 10, No. 4. - P. 339-378. - URL: <https://doi.org/10.1006/jjie.1996.0021>
3. Duranton G., Puga D. Micro-Foundations of Urban Agglomeration Economies // Handbook of Regional and Urban Economics. - Vol. 4. - Amsterdam: Elsevier, 2004. - P. 2063-2117. - URL: [https://doi.org/10.1016/S1574-0080\(04\)80005-1](https://doi.org/10.1016/S1574-0080(04)80005-1)
4. Rosenthal S.S., Strange W.C. Evidence on the Nature and Sources of Agglomeration Economies // Handbook of Regional and Urban Economics. - Vol. 4. -

Amsterdam: Elsevier, 2004. - P. 2119-2171. - URL: [https://doi.org/10.1016/S1574-0080\(04\)80006-3](https://doi.org/10.1016/S1574-0080(04)80006-3)

5. Glaeser E.L., Kallal H.D., Scheinkman J.A., Shleifer A. Growth in Cities // Journal of Political Economy. - 1992. - Vol. 100, No. 6. - P. 1126-1152. - URL: <https://doi.org/10.1086/261856>

6. Glaeser E.L., Maré D.C. Cities and Skills // Journal of Labor Economics. - 2001. - Vol. 19, No. 2. - P. 316-342. - URL: <https://doi.org/10.1086/319563>

7. Combes P.-P., Duranton G., Gobillon L., Puga D., Roux S. The Productivity Advantages of Large Cities: Distinguishing Agglomeration from Firm Selection // Econometrica. - 2012. - Vol. 80, No. 6. - P. 2543-2594. - URL: <https://doi.org/10.3982/ECTA8442>

8. Henderson J.V. The Urbanization Process and Economic Growth: The So-What Question // Journal of Economic Growth. - 2003. - Vol. 8, No. 1. - P. 47-71. - URL: <https://doi.org/10.1023/A:1022860800744>

9. O'zbekiston aholisi 38,2 milliondan oshdi // Kun.uz. 29.01.2026. - URL: <https://kun.uz/news/2026/01/29/ozbekiston-aholisi-382-milliondan-oshdi>

10. O'zbekistonda aholi soni bo'yicha yangi ma'lumot e'lon qilindi // Kun.uz. 16.04.2026. - URL: <https://kun.uz/news/2026/04/16/ozbekistonda-aholi-soni-boyicha-yangi-malumot-elon-qilindi>

11. Yalpi ichki mahsulot shakllanishida eng katta ulushni qaysi hududlar qo'shmoqda // Anhor.uz. 28.05.2025. - URL: <https://anhor.uz/uzl/news/yalpi-ichki-mahsulot-shakllanishida-eng-katta-ulushni-qaysi-hududlar-qo-shmoqda>

12. Toshkent shahri iqtisodiyotining qariyb 68 foizi xizmatlar sohasi hissasiga to'g'ri keladi // Yuz.uz. 2026. - URL: <https://yuz.uz/uz/news/toshkent-shahri-iqtisodiyotining-qariyb-68-foizi-xizmatlar-sohasi-hissasiga-togri-keladi>

13. 2025 yilda iqtisodiy o'sish bo'yicha Toshkent shahri birinchi bo'ldi // Sputnik O'zbekiston. 11.03.2026. - URL: <https://oz.sputniknews.uz/20260311/yaim-osish-uzbekistan-etakchi-hudud-56225358.html>

14. Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari asosida tahlil: O'zbekistonda iqtisodiy faollik sezilarli oshdi // Yuz.uz. 25.03.2026. - URL: <https://yuz.uz/uz/news/suniy-yoldosh-malumotlari-ozbekistonda-iqtisodiy-faollik-sezilarli-oshdi>

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

